



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES ASOSLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Oripova Ra'no Tolibovna

Farg'ona viloyati Qo'sh tepa tumani 1-son texnikumining "Biznes asoslari" fani
o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari, ularning pedagogik va iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada yashil iqtisodiyotning mazmun-mohiyati, biznes ta'limiga ta'siri, ekologik tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari hamda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, biznes asoslari fanini o'qitishda ekologik madaniyatni rivojlantirish, "yashil biznes" g'oyalarini targ'ib qilish va bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarb jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, biznes, tadbirkorlik, innovatsiya, ekologiya, ta'lim, metodlar, texnologiya, startap, kompetensiya, barqarorlik, marketing.

Bugungi kunda ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi jahon iqtisodiyotida yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Shu sababli "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanib, iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni ham ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon biznes faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, tadbirkorlikda ekologik mas'uliyat, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash zaruratini kuchaytirmoqda. Yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini o'qitish ham zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Chunki bugungi mehnat bozori ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qila oladigan, kreativ fikrlovchi va innovatsion kompetensiyalarga ega mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu sababli biznes ta'limida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar va startap faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, u iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashni ham nazarda tutadi. An'anaviy iqtisodiy model ko'proq tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va maksimal foyda olishga qaratilgan bo'lsa, yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga asoslanadi. Shu sababli bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham yashil iqtisodiyot g'oyalarini targ'ib qilish va ularni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurati ortib bormoqda. Biznes asoslari fanini o'qitishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish o'quvchilarning iqtisodiy tafakkurini zamonaviy talablar asosida shakllantirish imkonini beradi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mutaxassis nafaqat tadbirkorlik asoslarini bilishi, balki ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorligi va barqaror rivojlanish tamoyillarini ham chuqur ang'ay olishi kerak. Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat

ko'rsatish sohasida ekologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash kelajakdagi biznesning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Shu jihatdan biznes asoslari fanida "yashil biznes", ekologik marketing, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari hamda ekologik menejment kabi mavzularni o'qitish katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar iqtisodiyotni "yashillashtirish" orqali yangi ish o'rinlari yaratish, energiya sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga intilmoqda. Natijada "yashil kasblar" va ekologik yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimidan zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. Shuning uchun biznes asoslari fanini o'qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, innovatsion fikrlashni rivojlantirish va ekologik mas'uliyat hissini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini samarali o'qitish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Chunki an'anaviy ma'ruza asosidagi ta'lim bugungi tezkor iqtisodiy jarayonlar va mehnat bozori talablariga to'liq javob bera olmaydi. Zamonaviy ta'lim esa o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga qaratiladi. Shu sababli interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, startap texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish biznes ta'limida keng qo'llanilmoqda. Interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum", "Debat", "Klaster", "Case study" va "SWOT-tahlil" metodlari orqali o'quvchilar real biznes muammolarini tahlil qilish, ekologik xavflarni aniqlash va ularga innovatsion yechimlar ishlab chiqishni o'rganadilar. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga oid biznes loyihalarini ishlab chiqish o'quvchilarning ijodiy va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bunday metodlar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini yaratadi hamda o'quvchilarda jamoa bilan ishlash, qaror qabul qilish va strategik rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi ham biznes asoslarini o'qitishda samarali natija beradi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan biznes g'oyalarni ishlab chiqish, ularning iqtisodiy samaradorligini hisoblash va amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini o'rganadilar. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash, quyosh energiyasidan foydalanish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish yoki suvni tejovchi texnologiyalar asosida biznes loyihalar tayyorlash o'quvchilarda innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. Shu bilan birga, loyiha asosidagi ta'lim o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini kuchaytiradi va ularni real iqtisodiy jarayonlarga yaqinlashtiradi.

Raqamli texnologiyalar ham yashil iqtisodiyot sharoitida biznes ta'limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, biznes simulyatorlari va onlayn treninglardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, biznes simulyatorlari orqali o'quvchilar virtual kompaniya faoliyatini boshqarish, xarajatlarni rejalashtirish, ekologik xavflarni kamaytirish va bozor strategiyasini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa ularni real biznes muhiti uchun tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.





Yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ekologik jihatdan mas'uliyatli tadbirkorlarni tayyorlashdan iboratdir. Chunki zamonaviy tadbirkor faqat iqtisodiy foyda olishni emas, balki atrof-muhit muhofazasi va jamiyat manfaatlarini ham hisobga olishi kerak. Shu sababli ta'lim jarayonida ekologik tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ekologik tadbirkorlik kompetensiyasi o'quvchilarning ekologik muammolarni tushunishi, ularga iqtisodiy yechim topa olishi va barqaror biznes faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatini anglatadi. Bunday kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida ekologik loyihalar, biznes treninglar, innovatsion tanlovlar va amaliy seminarlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, "yashil startap" loyihalari orqali o'quvchilarda ekologik innovatsiyalar yaratishga bo'lgan qiziqish ortadi.

Bugungi kunda ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi "yashil marketing" tushunchasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois biznes asoslari fanida ekologik marketing strategiyalarini o'qitish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar ekologik brend yaratish, iste'molchilarning ekologik madaniyatini o'rganish va ekologik reklama usullarini qo'llash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Bu esa kelajakda raqobatbardosh va barqaror biznesni shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi davrda biznes ta'limi faqat iqtisodiyot bilan cheklanib qolmay, ekologiya, axborot texnologiyalari, menejment va psixologiya kabi fanlar bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot sharoitida fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolarni hal qilish kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu sababli biznes asoslari fanini boshqa fanlar bilan bog'liq holda o'qitish o'quvchilarning keng qamrovli bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, startap inkubatorlari, biznes akseleratorlari, amaliy trening markazlari va dual ta'lim tizimi orqali o'quvchilar haqiqiy biznes muhiti bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish ham biznes ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyot asosida tashkil etilgan biznes ta'limi tajribalarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali zamonaviy va samarali o'quv dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, ekologik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosidagi ta'lim modellari bo'lajak mutaxassislarining global mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda iqtisodiy tizimning ekologik yo'nalishga o'tishi biznes ta'limining mazmuni va metodologiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Avvallari biznes asoslari fanida asosan foyda olish, marketing strategiyalari, ishlab chiqarish jarayonlari va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish masalalari ustuvor hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ularga ekologik xavfsizlik, uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligi va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar ham qo'shilmqda. Bu esa biznes ta'limini yangi bosqichga olib chiqmoqda hamda o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonida yashil iqtisodiyot tamoyillarini integratsiyalash o'quvchilarda ekologik va iqtisodiy muammolarni birgalikda tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, ishlab



chiqarish korxonalarining faqat iqtisodiy foydasi emas, balki ularning atrof-muhitga ta'siri ham baholanmoqda. Shu sababli biznes asoslari fanida "karbon izi", ekologik audit, ekologik sertifikatlash va resurslarni boshqarish kabi tushunchalarni o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bo'lajak tadbirkorlarni ekologik jihatdan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi yangi biznes modellarining paydo bo'lishiga ham sabab bo'lmoqda. Jumladan, "aylanma iqtisodiyot" modeli bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda samarali qo'llanilmoqda. Ushbu modelda mahsulot va resurslardan maksimal darajada uzoq muddat foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ishlab chiqarish jarayoniga qayta kiritish asosiy maqsad hisoblanadi. Shu sababli biznes asoslari fanida aylanma iqtisodiyot tamoyillarini o'qitish o'quvchilarning zamonaviy biznes tendensiyalarini chuqur tushunishiga yordam beradi. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati, ekologik logistika va chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalariga oid bilimlar kelajakdagi mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega.

Yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarga keng o'rin berilishi zarur. Chunki biznes faoliyati ko'proq amaliy tajribaga asoslanadi va nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim jarayonida ekologik biznes loyihalarini ishlab chiqish, biznes reja tuzish, investitsion hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda ekologik muammolar bo'yicha iqtisodiy yechimlar ishlab chiqish kabi mashg'ulotlar samarali natija beradi. Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga mahalliy hududdagi ekologik muammolar asosida biznes g'oyalar ishlab chiqish topshiriqlari berilishi mumkin. Masalan, plastik chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilish, energiya tejoychi qurilmalarni ishlab chiqarish yoki ekologik toza qadoqlash vositalarini yaratish bo'yicha loyihalar tayyorlash o'quvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday topshiriqlar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Shuningdek, biznes asoslari fanida amaliy ekskursiyalar tashkil etish ham katta samara beradi. O'quvchilarni ekologik toza ishlab chiqarish korxonalari, qayta ishlash zavodlari yoki quyosh va shamol energiyasidan foydalanuvchi korxonalariga olib borish orqali ularda real biznes jarayonlari haqida tasavvur shakllanadi. Bu esa nazariy bilimlarning mustahkamlanishiga va o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida biznes asoslarini o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik muammolar, raqamli texnologiyalar va iqtisodiy jarayonlarning o'zgarishi biznes ta'limida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli biznes asoslarini o'qitishda interfaol metodlar, loyiha asosida ta'lim, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'quvchilarda ekologik madaniyat, iqtisodiy tafakkur va zamonaviy tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ekologik mas'uliyatli, innovatsion fikrlovchi va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash kelajakdagi barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois biznes ta'limini





Date: 21 May 2026

zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q. H., Zokirova N. Q. Iqtisodiyot nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 512 b.
2. Yo'ldoshev N. Q., Tursunov B. O. Biznes asoslari va tadbirkorlik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 368 b.
3. Qosimova M. S. Menejment va marketing asoslari. — Toshkent: Tafakkur, 2021. — 284 b.
4. To'xtayev A. Ekologiya va barqaror rivojlanish asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 296 b.
5. Rasulov A. R., Ismoilov B. T. Innovatsion iqtisodiyot va yashil texnologiyalar. — Toshkent: Lesson Press, 2022. — 344 b.
6. Umarov S. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2020. — 240 b.